

ABDUQODIROV Jasurbek Jonyigit o'g'li
O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi
"Islom tarixi va manbashunosligi-IRCICA"
kafedrası stajyor-o'qituvchisi.
e-mail: abduqodirovjasurbek36@gmail.com

O'ZBEKISTONDAGI ZIYORATGOHLARNING MINTAQA ZIYORAT TURIZMI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI

THE ROLE OF THE SHRINES LOCATED IN UZBEKISTAN IN THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ УЗБЕКИСТАНА В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ПАЛОМНИЧНОГО ТУРИЗМА

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududida joylashgan tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlar va ularning ziyorat turizmini rivojlantirishdagi imkoniyati, shuningdek, O'zbekiston- ning xalqaro ziyorat turizmi sohasidagi salohiyati, xususan, mamlakatdagi ziyorat turizmi rivoji uchun zarur bo'lgan tarixiy sharoit, uning bugungi ziyorat turizmi obyekti sifatidagi o'rni haqida so'z boradi. Qolaversa, maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishdagi muammolar tahlil qilingan va ularning yechimlariga amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, ziyorat, muammo va yechim, hamkorlik aloqalari, ziyorat turizmi obyektlari, turistik infrastruktura, din omili

Abstract. In the article, the shrines located in the territory of Uzbekistan and their potential for the development of pilgrimage tourism, as well as the potential of Uzbekistan in the field of international pilgrimage tourism, in particular, the historical conditions necessary for the development of pilgrimage tourism in the country, its role as an object of pilgrimage tourism today is mentioned. In addition, the article presents practical suggestions for the development of pilgrimage tourism and their solutions.

Keywords: pilgrimage tourism, pilgrimage, problem and solution, international cooperation, objects of pilgrimage tourism, touristic infrastructure, religious factor

Аннотация: В статье рассказывается об исторических памятниках, святынях,

расположенных на территории Узбекистана, и их возможностях в развитии паломнического туризма, а также о потенциале Узбекистана в области международного паломнического туризма, в частности, об исторических условиях, необходимых для развития паломнического туризма в стране, о его роли в качестве объекта паломнического туризма сегодня. Кроме того, в статье проанализированы проблемы развития паломнического туризма и даны практические предложения по их решениям.

Ключевые слова: паломнический туризм, паломничество, проблема и решение, международное сотрудничество, объекты паломнического туризма, туристическая инфраструктура, религиозный фактор

KIRISH

Bugungi kunda Dunyoning Halol turizm boyicha ixtisoslashgan yetakchi tashkilotlaridan biri Crescent Rating taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilga kelib ziyorat maqsadida sayohat qiluvchilarning soni 230 mln. kishini tashkil etishi mumkin. Bu esa kelajakda ziyorat turizmi jahon turizmining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylanishi hamda mamlakatimiz uchun istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatib beradi. Yurtimizdagi islom diniga oid ziyoratgohlar, yahudiylik, buddaviylik yodgorliklari, nasroniylik cherkov, monastrlaridan foydalangan holda xalqaro ziyoratchilarni jalb etish va xizmatlarni eksport qilish imkoniyati mavjud. O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga xizmat qiladigan sohalardan biri turizmning "ziyosat turizmi" tarmog'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli, 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 9-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli farmonlarida ziyorat turizmini rivojlantirish yo'lidagi vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, joriy yilning 1–3 noyabr kunlari O'zbekistonda Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi bo'lib o'tadi. Xalqaro haftalikdan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatda ziyorat turizmi salohiyatini yuzaga chiqarish, O'zbekistonni jahon sivilizatsiyasining

muhim markazlaridan biri sifatida tanitish, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirofga sazovor bo'lish, shuningdek, ziyorat turizmi xizmatlarini diversifikatsiya qilish va turizm eksportini oshirishdan iborat. Haftalik doirasida ziyorat turizmini rivojlantirish, mavzuga oid suvenirnlarni targ'ib etishga qaratilgan ko'rgazmalar, seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va madaniy-ma'rifiy tadbirlar, jumladan, Samarqand shahridagi yangi "Ipak yo'li" turistik markazining ochilishi, "Xiva – islom olami turizmi poytaxti" mavzusiga bag'ishlangan Xalqaro hunarmandchilik ko'rgazmasi, "Jahon ustalari" yarmarkasi va boshqa tadbirlar o'rin olgan. Albatta, bu kabi olib borilayotgan ishlar nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

ASOSIY QISM

O'tmishda Markaziy Osiyoda ulug' va mashhur kishilar qabrlari to'g'risida ham u yoki bu darajada ma'lumot beruvchi umumiy mavzulardagi asarlardan tashqari, ular haqida va ularni ziyorat qilishga oid asarlar ham yaratilgan bo'lib, Abu Hafs Umar Nasafiyning (1070–1142) «Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand ulamolari to'g'risida hikoya qiluvchi «Qand» asari»), Muin ul-fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) «Tarixi Mullozoda» («Mullozodaning tarix kitobi»), Sodiq Munshiy Jondoriyning (1758–1820) «Daxmayi shohon» («Shohlar daxmasi»), Abu Tohirxoja Samarqandiyning (vaf. 1874) «Samariya», Hakim Nuratoyning «Ismhoi buzurgoni Buxoroi Sharif» («Buxoroi Sharif ulug'larining ismlari») (1900) va Nosiriddin To'ra Buxoriyning «Tuhfat uz-zoyirin» («Ziyoratchilarga tuhfa») (1906) [5;10] kabi asarlarini eslatib o'tish mumkin. O'zbekiston hududida islom madaniyati va uning tasavvuf oqimiga, shuningdek, boshqa dinlarga mansub ko'plab muqaddas qadamjolari mavjud va mashhur hisoblanadi. Buxorodagi Abu Hafs Kabir Buxoriy – Hazrati Imom (767–832), Chor Bakr, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni (taxm. 1103–1179) va Xoja Bahouddin Naqshband (1318–1389), Samarqanddagi Qusam ibn Abbos (624–677), Imom Buxoriy (810–870), Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944), Amir Temur (1336–1405) va Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490), Surxondaryodagi Hakim Termiziy (820–932) va Imom Abu Iso at-Termiziy (824–892), Toshkentdagi Imom Qaffol

Shoshiy (903–976), Zangi Ota (vaf. 1258) va Shayx Xovandi Tohur (vaf. 1355), Xivadagi Pahlavon Mahmud (1247–1326) maqbaralari [5;10] keyingi avlodlar tomonidan ziyorat qilinadigan maskanlarga aylantirilgan. Ziyorat barcha musulmon o'lkalari kabi Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham azaldan sayyohlikning biri turlaridan bo'lib kelgan. Qadim zamonlardan buyon ulug' ajdodlari xotirasiga ehtirom bajo keltirish maqsadida qabrlar va qadamjolarni ziyorat qilish odat tusiga aylangan edi.

Bugungi kunda turli dinlarga e'tiqod qiluvchi sayyohlarning mamlakatimizga tashrifi ham ortib bormoqda. O'zbekistonda nasroniylar va musulmonlar muqaddas va hurmat qiladigan 10 dan ortiq ziyoratgohlar ham mavjud. Hozirgi zamonga qadar O'zbekiston hududida nasroniylar ham, musulmonlar ham "Ayub buloqlari"ni e'zozlab kelgan, ularning eng mashhuri Buxoroda joylashgan. Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa, Dalvarzintepa tarixiy yodgorliklari buddizm diniga e'tiqod qiluvchi Yaponiya, Koreya va Xitoy sayyohlarini o'ziga jalb etmoqda. Tarixga nazar solinsa, 1968-yilda eski Termiz hududidan Budda haykali topilganligi va shundan buyon bu zamin ko'plab ilmiy arxeologlar tadqiqotining asosiy ob'ektiga aylandi, keyinchalik eng qadimgi buddistlar ibodatxonasi majmualari ham topildi. Fayoztepa (miloddan avvalgi 1-asr - 3-asr), Kampirtepa, Qoratepa, qadimgi musiqachilar surati tushirilgan mashhur Ayrtam frizining elementlarining topilishi ellinistik madaniyat unsurlari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Hozirda frizning terakotadan yasalgan bareleflari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Bundan tashqari, Samarqanddagi Doniyol payg'ambar qabri uch din vakillari: islom, xristian va yahudiy dini vakillarini bir joyda ziyoratga jalb etmoqda. Bu esa ziyorat turizmining diniy bag'rikenglik mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda jahonning ko'plab davlatlarida ommalashib borayotgan ziyorat turizmini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, *"O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta....."*

O'zbekiston hududida joylashgan ziyoratgohlar mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi o'rni ahamiyatlidir. Har bir ziyoratgoh va uning atrofi hamda shunga bog'liq sohalarni rivojlantirish orqali nafaqat yurtimizdagi, balki horijdagi sayyohlarni ham jalb qilish imkoniyati mavjud. Misol uchun, Imom Moturidiy ziyoratgoh maqbarasining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi o'rni haqida keltirish mumkin. Sababi, dunyoda jami 1.9 mlrd musulmon aholi istiqomat qiladi hamda ularning taxminan 750 millionini (40%) moturidiylik ta'limotiga e'tiqod qiluvchi musulmonlar tashkil etadi. Bu esa Imom Moturidiy yurti bo'lgan O'zbekiston uchun xorijlik musulmon sayyohlarni ushbu yurtga tashrifini amalga oshirishda yetarlicha salohiyati borligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ushbu dargohga ziyoratchilar tashrifini kengaytirish maqsadida, bir qancha amaliy ishlarni amalga oshirish mumkin. Jumladan:

1. Maqbara atrofiga tashrif buyuruvchi musulmon sayyohlar uchun halol standartlarga asosida ish yuritadigan hostel va mehmonxonalarning bo'lishi;

2. Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limoti haqida ma'lumot beruvchi mahalliy va xorij tillarida chop qilingan kitoblar savdo maskanini yo'lga qo'yish;

3. Movarounnahrda moturidiylik ta'limoti asosida ijod qilgan olimlar haqidagi ma'lumotlar va ularning ziyorat qilish yo'l xaritasini ishlab chiqish va boshqalar.

XULOSA

O'zbekistonda ziyorat turizmi jadallik bilan rivojlanar ekan, hozirgi kunda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva, Shahrizabz, Qo'qon, Andijon kabi yirik tarixiy shaharlarda joylashgan yurtimiz ulamolarining ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarini keng jamoatchilik va butun jahonga tanitish, ular yaratgan madaniy va ma'naviy meroslar va qimmatbaho asarlar haqida ma'lumotlarni yetkazib berish va bu orqali ichki turizmni rivojlantirish bilan bir qatorda, xorijdan ko'plab sayyohlarni jalb qilish muhim sanaladi. Boisi, Musulmon dunyosiga mashhur bo'lgan, islom ilmlari bo'yicha asarlar yaratgan, xususan, hadisshunoslik bo'yicha Imom Buxoriyning "Al-Jome'u-s-sahih", Imom Termiziy va Imom Dorimiylarning "Sunan" asarlari, kalom ilmi bo'yicha Abu Mansur Moturidiyning "Tavhid",

Abu Mu'in Nasafiyning "Tafsiratu-l-adilla", Abu Hafs Umar Nasafiyning "Aqoid", tafsirshunoslik bo'yicha Abu Lays Samarqandiyning "Bahru-lulum", Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof an aqoiqi-t-tanzil", Abulbarakot Nasafiyning "Madoriku-t-tanzil", fiqh ilmi bo'yicha Abu Hafs Kabir Buxoriyning "Fatovo", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" kabi noyob va qimmatbaho asarlari dunyo sivilizatsiyasi rivoji uchun asos bo'lgan [9;3].

Yangi O'zbekiston o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dunyo hamjamiyati bilan har qanday manfaatli va amaliy aloqalarni yanada rivojlantirish yo'lidani bormoqda. Bu xoh ijtimoiy-iqtisodiy bo'lsin, yoki madaniy-ma'rifiy bo'lsin, bu avvalo O'zbekiston xalqini ijtimoiy jihatdan yuksaltirish va mamlakat iqtisodiyotini o'stirish kabi istiqbollari reja qilingan. Shu maqsadda, 2016-yildan boshlab mamlakatda sayyohlik sektori yaxshilana boshladi. Jumladan, ziyorat turizmi sohasi ham muhim bir sohaga aylanib, o'z salohiyatini ko'rsatdi.

Tahlil qilinsa, ziyoratchilarni ikki maqsadda tashrif buyurishi kuzatilmoqda. Birinchidan, musulmonlarning maqsadli ziyorati asosan, ulug' siymolar qadamjolarini ziyorat qilishi tushuniladi. Ikkinchidan, musulmon bo'lmagan kishilar bo'lib, asosan arxitektura, madaniyat, turmush tarzi va boshqalarni ko'rish uchun kelishlari hamda chiroy va ajoyibotlardan bahramand bo'lish maqsadida tashrif buyurishini anglashimiz mumkin. [7;762]

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Ziyorat turizmi salohiyati jihatidan yetakchi rivojlangan davlatlardan hisoblanadi. Lekin ushbu salohiyatdan to'g'ri foydalanish va amalga oshirish muhim sanaladi. O'zbekistonga tashrifni targ'ib qiluvchi bannerlar, flerlar, videoroliklar SMM (social media marketing) orqali yaratilishi va tarqatilishi lozim [2;8]. Bugungi kunda ziyorat turizmi rivojlangan davlatlar Malayziya, Indoneziya, Turkiya singari davlatlar bilan ziyorat turizmi integratsiyasi dasturini tuzish va bu orqali ziyorat turizmini rivojlantirish maslahat kengashini tuzish, jumladan, Turkiya, Malayziya, Singapur, Brunej, Indoneziya turizm sohasi rivojlangan davlatlar va u yerda joylashgan ziyorat turizmi markazlari bilan "Yagona ziyorat turizmi maskani" hamkorligini yo'lga qo'yish mumkin. Hamkorlik jihatidan bir qancha davlatlar bilan ta'lim sayohatini (Educational trip) [4;5] amalga oshirish, bu orqali ziyorat turizmini rivojlantirish mumkin. Ya'ni, ziyorat turizmi bu ilm turizmidir. O'zbekiston- buyuk allomalar

yurti. Ushbu tabarruk diyordan tolibi ilmlarni o'z bag'riga olgan, butun dunyoga ilm nurini taratib bergan bir qancha olimlar va ulamolar, fozilu fuzalolar, islomshunos olimlar yetishib chiqqanligi va hozirgi kunda ham ular qoldirgan nodir meroslar yurtimizda, nafaqat yurtimizda, balki dunyo bo'ylab o'rganilayotganligi so'zimiz isboti hisoblanadi. Masalan, Tatariston Respublikasi, Indoneziya kabi davlat oliy o'quv yurti talabalari o'qish davomida bir yoki ikki haftalik ziyorat amallarini qilishi va bu orqali bilimga ham ega bo'lishadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tashrif buyuruvchi ziyoratchilarga reklama, videolari, bosma materiallar, ma'lumotlar o'zlari va xalqaro tillarida taqdim qilinishi va ta'minlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan yuqoridagi chora-tadbirlar Bolqon, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston va Uzoq Sharq davlatlari bo'yicha ham ishlab chiqilishi mumkin.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni hayotga sanmarali tatbiq etish iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, mamlakatimizning boy tarixi, madaniyati, me'moriy yodgorliklari hamda noyob an'analari butun jahonga tanitishga hamda O'zbekiston dunyo davlatlari sayyohlari uchun eng sevimli turistik yo'nalishlardan biriga aylanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulhatov N, G'oziev T. "Burhoniddin Marg'inoniy: tarixiy haqiqat va asotirlar".- T.: Yangi asr avlodi, 2010. B14.
2. Khashimov, Sherakhon Jurakhanovich (2020) "Pilgrimage Tourism in Uzbekistan: Problems and Solutions," Electronic Research journal of Social Sciences and Humanities: V.2: Iss.1,P.8
3. Surayyo, Usmanova (2019) "Ziyarah Tourism as a New Linkage for Tourism Development in Uzbekistan," New voices from Uzbekistan, P.31
4. Tanti, Handriana (2019) "Exploration of Pilgrimage Tourism in Indonesia," Journal of Islamic marketing, V.4: Iss.2,P.5
5. Muin ul-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. "Tarixi mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro". (Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Komiljon Rahimov) – T.: Fan nashriyoti. 2019. B.10
6. Mirzayev M., Aliyev M. "Turizm asoslari"- T.: Milliy jamiyat nashriyoti, 2011.B.12
7. Ömer Akgün Tekin. "İslami turizm: dünya'daki ve Türkiye'deki genel durum üzerine bir inceleme". –The Journal of International Social Research, 2014.B.762
8. Zakiah, Samori (2012) "Developing Halal Standart for Malaysian Hotel Industry: Exploratory Study," Procedia- Social and Behavioral Sciences, V.3: Iss.2,P.3
9. Islamov Z. "O'zbekistondagi qo'lyozma nusxalarining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati"// Islom tafakkuri. – T.: 2021- B.3
10. Thomas, Bausch (2020) "Pilgrimage as a Field of Tourism Development: The Case of Kavala (Northern Greece) and its Institutional and Cultural Challenges," International journal of religion tourism and pilgrimage: V. 8: Iss. 3, P7
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Batafsil: (<https://lex.uz/docs/-3548467>)
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Batafsil: <https://lex.uz/ru/docs/-4143188>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon loyihasi. Batafsil: <https://regulation.gov.uz/uz/d/26583>
14. uzbekistan-geneva.ch. Batafsil: <http://uzbekistan-geneva.ch/ziyosat-turizmi-jadal-rivojlanadi.html>
15. www.uzbekembassy.in Batafsil: <http://www.uzbekembassy.in/uzbekistan-to-host-naqshbandi-tourism-festival-2019>
16. www.uzbekistan.travel